



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY SALOHIIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sultonov Shodiyor Abduhalilovich

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В СЕКТОРЕ УСЛУГ

Султанов Шодиёр Абдухалилович

ECONOMIC CAPACITY AND DEVELOPMENT PROSPECTS OF SMALL BUSINESS IN THE SERVICE SECTOR

Sultanov Shodiyor Abduhalilovich

Received: March 3, 2026 Revised: March 6, 2026 Accepted: March 9, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiiyati, uning milliy iqtisodiyot rivojidadagi o'rni hamda zamonaviy sharoitlarda rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Xizmat ko'rsatish sektori iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida kichik biznes sub'yektlarining xizmatlar bozoridagi ulushi, ularning iqtisodiy samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy salohiiyat, tadbirkorlik faoliyati, xizmatlar bozori, iqtisodiy o'sish, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, investisiya muhiti, bandlik.

Аннотация: В данной статье анализируются экономический потенциал малого бизнеса в сфере услуг, его роль в развитии национальной экономики, а также перспективы развития в современных условиях. Сфера услуг является важным фактором обеспечения экономического роста, создания новых рабочих мест, увеличения доходов населения и расширения предпринимательской деятельности. В ходе исследования изучены доля субъектов малого бизнеса на рынке услуг, их экономическая эффективность, возможности внедрения инновационных технологий, а также механизмы государственной поддержки.

Ключевые слова: малый бизнес, сектор услуг, экономический потенциал, предпринимательская активность, рынок услуг, экономический рост, инновации, цифровая экономика, инвестиционный климат, занятость.

Abstract: This article analyzes the economic potential of small businesses in the service sector, their role in the development of the national economy, and the prospects for development in modern conditions. The service sector is an important factor in ensuring economic growth, creating new jobs, increasing the income of the population, and expanding entrepreneurial activity. The study examines the share of small business entities in the service market, their economic efficiency, opportunities for the introduction of innovative technologies, and the mechanisms of state support.

Keywords: small business, service sector, economic potential, entrepreneurial activity, services market, economic growth, innovation, digital economy, investment climate, employment.

■ KIRISH

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotida transformatsiya jarayonlari xizmat ko'rsatish sohasini yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishining asosiy drayveriga aylantirdi. Bugungi kunda ushbu sektor nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantiradi, balki aholi bandligini ta'minlash va turmush sifatini oshirishda ijtimoiy stabilizator vazifasini ham o'taydi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari o'zining texnologik moslanuvchanligi va operatsion mobilligi bilan xizmatlar bozoridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezkor javob bera oladigan yagona bo'g'in hisoblanadi.

O'zbekistonda kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasidagi rolini oshirish shunchaki iqtisodiy zarurat emas, balki izchil shakllantirilgan davlat siyosatining natijasidir. Sohaning huquqiy poydevori O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi hamda uning muntaziy davomi sifatida qabul qilingan 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (O'RQ-328) Qonunlari bilan mustahkamlandi. Ushbu hujjatlar tadbirkorlikni "erkin faoliyat" darajasidan "huquqiy himoyalangan iqtisodiy kuch" darajasiga ko'tardi. Sohadagi jadal islohotlar davri, ayniqsa, 2016-yildan keyingi bosqichda yangi sur'at oldi. PF-4848-son Farmon bilan xususiy mulk daxlsizligining kuchaytirilishi kichik biznes sub'yektlari uchun "ishonch krediti"ni shakllantirgan bo'lsa, PQ-



4702-son Qaror aynan xizmat ko'rsatish sohasini alohida ob'jekt sifatida ajratib ko'rsatdi. Bu tahliliy jihatdan shuni anglatadiki, davlat tadbirkorlikka umumiy yondashuvdan sohaviy (sektoral) rivojlantirish bosqichiga o'tdi[3].

Shu bilan birga, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi (PF–158) doirasida xizmatlar hajmini 3 baravarga oshirish maqsadi belgilangani, kichik biznes uchun ulkan "bozor sig'imi" yaratilishini anglatadi. Taraqqiyot strategiyasidagi (PF–60) vazifalar bilan uyg'unlashgan holda, bu ko'rsatkichlar hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali "markazdan chekka hududga" tamoyili asosida iqtisodiy salohiyatni taqsimlash imkonini beradi[4].

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyati va uning rivojlanish istiqbollari iqtisodiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, unda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini, xizmat ko'rsatish sohasidagi ulushi hamda rivojlanish omillari tahlil qilingan[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu asarda xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy o'sishini ta'minlash, aholi bandligini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi muhim o'rnini ta'kidlangan[6].

Q.X.Abdurahmonovning "Iqtisodiyot nazariyasi" asarida kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi keng yoritilgan. Muallifning fikricha, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning moslashuvchanligini oshiradi hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi[7].

A.V.Vahobov va T.T. Jo'rayevlarning "Milliy iqtisodiyot" darsligida xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushi, uning rivojlanish tendensiyalari hamda kichik biznes subyektlarining ushbu jarayondagi o'rnini tahlil qilingan. Mualliflar xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biri ekanligini hamda uning rivojlanishi aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar[8].

Shuningdek, S.S.G'ulomov va A.A.Rasulovlarning ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi hamda xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish yo'llari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynashi qayd etilgan[9].

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish

hamda elektron xizmatlarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tadqiqotlarida ham kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan[10].

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini aniqlash hamda uning rivojlanish istiqbollari o'rganish maqsadida turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu manbalarni o'rganish orqali kichik biznesning xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rnini, iqtisodiy salohiyati va rivojlanish omillari aniqlab olindi.

Tadqiqot davomida **tahlil va sintez usullari** keng qo'llanildi. Tahlil usuli yordamida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar o'rganildi, sintez usuli orqali esa olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Shuningdek, tadqiqotda **statistik tahlil usulidan** foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi statistika organlarining rasmiy ma'lumotlari asosida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni, ularning iqtisodiyotdagi ulushi hamda rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.

Bundan tashqari, **taqqoslash usuli** yordamida turli yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari aniqlab olindi. Bu usul orqali xizmat ko'rsatish sohasining boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan o'zaro bog'liqligi ham baholandi.

Tadqiqot jarayonida **mantiqiy umumlashtirish usuli** ham qo'llanilib, olingan natijalar asosida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda uning rivojlanish istiqbollari ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning salohiyati hali to'liq ishga solinganicha yo'q. Ilmiy adabiyotlar va rivojlangan davlatlar (AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya) tajribasi shuni ko'rsatadiki, sohaning YAIMdagi ulushi 70% dan yuqori bo'lishi uchun faqatgina miqdoriy ko'rsatkich emas, balki sifat va innovatsion komponent zarur. Hozirda mahalliy tadbirkorlikda raqamli texnologiyalarni joriy etish va kadrlar malakasi kabi masalalar strategik to'siq bo'lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi — xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy imkoniyatlarini statistik va qiyosiy tahlil qilish hamda uning 2030-yilga qadar bo'lgan rivojlanish trayektoriyasini ilmiy asoslashdan iborat.

Xizmat ko'rsatish sohasi va kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar xizmat ko'rsatish sektorining milliy iqtisodiyot



tarkibidagi ulushi, uning bandlikni ta'minlashdagi roli hamda kichik biznes faoliyatining iqtisodiy o'sishga ko'rsatadigan multiplikativ ta'sirini turli nazariy yondashuvlar asosida yoritib beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Qalandar Abdug'aniyev tomonidan yaratilgan "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" darsligida kichik biznes sub'yektlarining milliy iqtisodiyotdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Muallif kichik biznes iqtisodiyotning eng moslashuvchan sektori ekanligini ta'kidlab, xizmat ko'rsatish sohasida ushbu sub'yektlar bozor kon'yunkturasiga tez moslashish, iste'molchilar ehtiyojini qondirish hamda iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish orqali muhim multiplikativ samara hosil qilishini asoslab beradi[11].

Mazkur yondashuvning mantiqiy davomi sifatida iqtisodchi olim A.X. Vahobovning "Bozor iqtisodiyoti asoslari" asarida xizmat ko'rsatish sektorining iqtisodiyot tarkibidagi ahamiyati yanada kengroq tahlil qilinadi. Muallif bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy tizimning diversifikatsiyasini ta'minlashini, shuningdek kichik biznes faoliyati orqali ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, iqtisodchi olim Sh.Sh. Shodmonov o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" nomli asarida kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi o'rnini nazariy jihatdan yoritib, uning raqobat muhitini rivojlantirishdagi roliga alohida e'tibor qaratadi. Muallifning fikricha, kichik biznes sub'yektlari xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy jarayonlarda samarali bozor mexanizmlarining shakllanishiga hamda iqtisodiyotda barqaror talab va taklif muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur masalaga yana bir muhim yondashuv iqtisodchi olim M. Sharifxo'jayevning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" nomli ilmiy ishida ko'rib chiqilgan. Muallif kichik biznes rivojlanishida institusional muhit, davlat tomonidan yaratiladigan iqtisodiy sharoitlar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, samarali institusional muhit kichik biznes sub'yektlarining xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi[12].

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda bildirilgan mazkur ilmiy qarashlar xalqaro iqtisodiy tadqiqotlar bilan ham o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Xususan, amerikalik olim Philip Kotler o'zining "Marketing Management" asarida xizmat ko'rsatish bozorida iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, xizmat sifati va marketing strategiyalarini takomillashtirish raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omil ekanligini asoslab beradi. Shu bilan birga, iqtisodchi olim Joseph Schumpeter "The Theory of Economic Development" asarida iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi va kichik biznes

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi bandligini oshirish hamda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyati xizmat ko'rsatish sohasining an'anaviy shakllariga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lib, zamonaviy raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat (e-commerce), moliyaviy texnologiyalar (fintech) hamda IT-xizmatlarning kichik biznes rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri etarli darajada chuqur o'rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini raqamli transformatsiya sharoitida o'rganish, xizmatlar bozorining yangi shakllari hamda innovasion rivojlanish omillarini tahlil qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish istiqbollari kompleks tahlil qilishni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 43,4 foizini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlariga nisbatan yuqori ulushni egallaydi[13].

2024-yilda esa xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi yanada ortib, 47,4 foizga etgan. Shu bilan birga, ushbu sektor yalpi qo'shilgan qiymatning 657,3 trillion so'mini tashkil etib, yil davomida 7,7 foiz o'sish qayd etilgan. Bu ko'rsatkich xizmatlar sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi barqaror rivojlanish tendensiyasini ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatadiki, savdo, transport, turizm va axborot-kommunikatsiya xizmatlari eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlar hisoblanadi. Jumladan, 2024-yilda savdo xizmatlari hajmi 11,5 foizga, mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari 10,7 foizga, transport va logistika xizmatlari 8,5 foizga, axborot va kommunikatsiya xizmatlari esa 24,7 foizga o'sgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sektoridagi roli tobora ortib borayotganini ko'rsatadi[14].

Hududlar kesimidagi tahlillar xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi viloyatlar o'rtasida sezilarli farq qilishini ko'rsatadi. Masalan, 2023-yil yakuniga ko'ra xizmat ko'rsatish sektorining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi Toshkent shahrida 60,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayrim sanoatga ixtisoslashgan hududlarda bu ko'rsatkich ancha past bo'lib, Navoiy viloyatida 12,2 foiz, Toshkent viloyatida esa 24,8 foiz atrofida qayd etilgan. Bu holat hududlar o'rtasida xizmatlar infratuzilmasi va tadbirkorlik faoliyati rivojlanish darajasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil ham muhim natijalarni ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 45 foiz atrofida bo'lgan, dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa 55 foizdan yuqori hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotida



xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish uchun hali katta iqtisodiy imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi bandligini oshirish va hududlar iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish hamda xizmatlar bozorida innovasion faoliyatni rag'batlantirish orqali ushbu sohaning iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirish mumkin[15].

Xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa kichik biznes sub'yektlari ushbu sektorning asosiy drayveri hisoblanadi. Statistik tahlillar xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda savdo, transport-logistika, turizm, axborot texnologiyalari hamda moliyaviy xizmatlar kabi yo'nalishlar xizmatlar bozorining asosiy segmentlari sifatida shakllanmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy jarayonlar xizmat ko'rsatish sohasida yangi iqtisodiy tendensiyalar – raqamli xizmatlar, kreativ iqtisodiyot, elektron tijorat (e-commerce) hamda mijoz tajribasiga (Customer Experience) asoslangan xizmatlar modelining rivojlanib borayotganini ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonlar kichik biznes sub'yektlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratib, xizmatlar bozorining innovasion rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar asosida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Hududlarda zamonaviy xizmatlar xablari (service hubs) tashkil etish orqali kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rivojlantirish va xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish;

2. Kichik biznes sub'yektlari uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, xususan venchur fondlari, lizing mexanizmlari va innovasion investisiya dasturlarini keng joriy etish;

3. Hududlar o'rtasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasidagi tafovutlarni kamaytirish maqsadida mintaqaviy servis infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini kuchaytirish.

Mazkur tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish hamda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan xizmat ko'rsatish sohasi va kichik biznes iqtisodiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishda ham foydalanish mumkin.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Sultonov Shodiyor Abduhalilovich Samarqand iqtisodiyot va servis institute mustaqil izlanuvchisi / Султанов Шодиёр Абдухалилович Самаркандский институт экономики и сервиса, независимый исследователь / Sultanov Shodiyor Abduhalilovich Samarkand Institute of Economics and Service, independent researcher

E-mail: shodiorsultonov@gmail.com

ORCID: 0009-0004-9707-1426

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktyabrdagi PF-4848-son Farmoni "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususi mulkni himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".

4. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2012-yil 2-may.

5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasi statistik ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2024. – URL: <https://stat.uz>

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy statistik ma'lumotlari. – URL: <https://mineconomy.uz> (murojaat qilingan sana: 2026).

7. The Global Economy. Share of services in GDP – Uzbekistan. – URL: <https://www.theglobaleconomy.com>

8. World Bank. World Development Indicators: Service sector share of GDP. – Washington DC: World Bank Group, 2024.

9. Abdug'aniyev Q.X. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. – 320 b.

10. Jo'rayev N.Q. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – 280 b.

11. Kotler P., Keller K. Marketing Management. – 15th ed. – Pearson Education Limited, 2016. – 714 p.

12. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

13. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2017. – 560 b.

14. Sharifxo'jayev M. Kichik biznes va xususi tadbirkorlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 240 b.

15. Vahobov A.X., Xojibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Bozor iqtisodiyoti asoslari: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2018. – 400 b.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz